

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar  
fanlarning dolzarb  
muammolari**

Jild 3, Son 10

**2023**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*№ 10 (3)-2023*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2023**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### *07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

### *08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### *09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### *10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

### *12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАРИ:*

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

### *13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:*

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шохида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

### *19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Каримова Васида Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

### *22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Латипова Нодида Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

### *23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР*

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

---

## **ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

---

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.  
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
масъулияти чекланган жамият.

## **Тахририят манзили:**

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: [scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

Телеграм канал:

[https://t.me/scienceproblems\\_uz](https://t.me/scienceproblems_uz)

## МУНДАРИЖА

### 07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

*Фарманова Гулнара Комилевна*  
МЕТОДЫ АРХЕОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ НА ТЕРРИТОРИИ САМАРКАНДСКОГО  
СОГДА В КОНЦЕ XIX – НАЧАЛЕ XX ВЕКА ..... 9-18

*Саидбобоева Гулзора Нематжоновна*  
ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ АРХИВИ ҲУЖЖАТЛАРИДА ГИДРОЭЛЕКТР СТАНЦИЯЛАРИНИНГ  
ҚУРИЛИШИГА ДОИР МАЪЛУМОТЛАР (XX АСР 20-ЙИЛЛАРИ ОХИРИ-30-ЙИЛЛАР  
БОШИ) ..... 19-26

*Ахмедов Шахзод Фарход ўғли*  
МУСТАҚИЛЛИККА ЭРИШИШ АРАФАСИДА ЎЗБЕКИСТОНДА ЧОРВАЧИЛИКНИНГ  
УМУМИЙ ҲОЛАТИ ВА МАВЖУД МУАММОЛАРИ ..... 27-34

*Mirsoatova Sayyora Turg'unovna*  
MARKAZIY FARG'ONA NEOLIT JAMOALARI MADANIYATI HAQIDA MULOHAZALAR ..... 35-39

*Янгибоева Дилноза Ўктамовна*  
МУҲАММАД ШАРИФЖОН МАХДУМ САДРИ ЗИЁНИНГ ИЖТИМОИЙ-СИЁСИЙ  
ФАОЛИЯТИ ..... 40-48

*Маҳмудов Эркинжон Асқаралиевич*  
АРАБЛАР ТОМОНДАН ФАРФОНАНИНГ ЗАБТ ЭТИЛИШИ ҲАҚИДАГИ МАЪЛУМОТЛАР ВА  
УЛАРНИНГ ТАҲЛИЛИ ..... 49-53

*Yoriqulov Nasibulla Xoliyorovich*  
O'ZBEKISTON HUDUDIGA G'ARB ME'MORCHILIK AN'ANALARINING KIRIB KELISHI ..... 54-58

*Ergasheva Bahridil G'olibjonovna*  
IJTIMOIY TARMOQLARDAGI REKLAMALARNING IJTIMOIY-MA'NAVIY HAYOTGA TA'SIRIGA  
DOIR MULOHAZALAR (ETNOSOTSIOLOGIK TAHLIL) ..... 59-65

*Абдухамидов Исломбек Абдухалим ўғли*  
МЕҲНАТ МИГРАЦИЯСИНИ ЎРГАНИШДА ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ ЁНДАШУВЛАР ..... 66-74

*Boltayeva Moxichehra Jamshid qizi*  
XORIJIIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISH BO'YICHA AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR VA  
ERISHILGAN KO'RSATKICHLAR (JIZZAX VILOYATI MISOLIDA) ..... 75-80

*Кандахаров Анваржон Хасанович, Бабаярова Шахноза Шухратовна*  
БУХОРО ХОНЛИГИДА АБДУЛЛАХОН II ДАВРИНИНГ ҚУРИЛИШ ИНШООТЛАРИ  
ТАРИХИГА БИР НАЗАР ..... 81-86

### 8.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

*Boltayev Nurali Shiramatovich*  
AGRAR OLIIY TA'LIM MUASSASALARIDA MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHNING  
BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI ..... 87-93

<i>Дустова Мухайё Худайбердиевна</i> РОСТ, УСТОЙЧИВОСТЬ, ДОХОДНОСТЬ: ЭКОНОМЕТРИКА ФИНАНСОВЫХ ПОТОКОВ НА СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ .....	94-102
<i>Ravshanov Malik Naimovich</i> METHODOLOGY FOR DETERMINING THE NEED FOR ECONOMIC RESOURCES OF THE ROAD TRANSPORT COMPLEX.....	103-108
<i>Xushmuradov Oman Namozovich</i> TIJORAT BANKLARI MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASH ISTIQBOLLARI .....	109-115
<i>Raximjonov Kamronbek Ixomjon o'g'li</i> DAVLAT XARIDLARINI AMALGA OSHIRISHDA KORRUPSIYANI OLDINI OLISH .....	116-121
<b>09.00.00 - ФАЛСАФА ФАНЛАРИ</b>	
<i>Наврўзова Гулчеҳра Нигматовна</i> АКАДЕМИК ИБРОҶИМ МЎМИНОВ ИЛМИЙ ЖАСОРАТИНИНГ ЯНГИ ҚИРРАСИ .....	122-128
<i>Talabov Baxriddin Alijanovich</i> KONSTITUTIONIZM DEMOKRATIK RIVOJLANISHNING ASOSI SIFATIDA .....	129-134
<i>Tajibaev Muxiddin Abdurashidovich</i> JAMIYAT HAYOTIDA SINERGETIK DUNYOQARASH PARADIGMASINI TADQIQ QILISHNING AHAMIYATI .....	135-140
<i>Солиев Икромжон Комилжонович</i> РАҚАМЛИ ДУНЁДА ИНСОН ҚАДРИ МУАММОСИ: ИЛМИЙ-ФАЛСАФИЙ ТАЛҚИН ....	141-147
<i>То'хтайев Hakim Primovich</i> TASAVVUF TA'LIMOTLARIDA QADRIYATLAR TRANSFORMATSIYASINING NAMOYON VO'LISH XUSUSIYATLARI .....	148-153
<i>Уразалиева Гулшада</i> СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ КАТЕГОРИИ «ГЕНДЕР» В СИСТЕМЕ ОБЩЕСТВЕННЫХ ОТНОШЕНИЙ .....	154-160
<i>Гуламова Мавжуда Ташпулатовна</i> ИЖТИМОЙ АХЛОҚ МЕЗОНЛАРИНИ ЎРГАНИШДА КУМУШХОНАВИЙ ВАСИЯТНОМАЛАРИНИНГ ЎРНИ .....	161-167
<i>Xoliqov Lazizjon Maxmud o'g'li</i> GLOBAL O'ZGARISHLAR SHAROITIDA O'ZBEKISTONNING IJTIMOYIY-DUNYOVIY DAVLAT SIFATIDAGI MAQOMI (IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLIL) .....	168-172
<i>Quvonov Sardor Zokirovich</i> MA'NAVIY TARBIYANI SHAKLLANTIRISHDA "MANOQIBI SHAYX XUDOYDOD VALIY" ASARINING AHAMIYATI .....	173-178
<b>10.00.00 - ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ</b>	

<i>Халметова Меҳрибону Гайратжонова</i> ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ДЕТСКОЙ ЛЕКСИКИ В НЕМЕЦКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ .....	179-186
<i>Abdijabbor Amanov</i> MURAKKAB SINTAKTIK BUTUNLIKNING MATNNING KATTA BIRLIGI SIFATIDA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....	187-193
<i>Umarova Xurshida Zikiryoixonovna</i> AQSH ADABIYOTIDA PSIXOLOGIK ROMAN TADRIJI .....	194-201
<i>Odinayev Bekqul Imamqulovich</i> LISONIY SHAXS: TA'RIF, TAHLIL, TALQIN .....	202-210
<i>Jaloliddin Jo'rayev, Jamoliddin Jo'rayev</i> "DEVONI LUG'ATIT-TURK" VA "GULSHAN UL-ASROR"DAGI QADIMGI TURKIY SO'ZLAR QIYOSI .....	211-217
<i>Saidov Akmal Azimovich</i> "TARJIMA NAZARIYASI VA AMALIYOTI" YO'NALISHIDA TAHSIL OLAYOTGAN TALABALARDA MADANIYATLARARO MULOQOT KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH .....	218-224
<b>12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР</b>	
<i>Qosimov Botirjon Ma'rufjon o'g'li</i> SUDYALAR OLIY KENGASHINI SUDYALARNING CHINAKAM HAMJAMIYATI ORGANIGA AYLANTIRISHNING KONSTITUTSIYAVIY MASALALARI .....	225-231
<i>Жўраев Дилмурот Мухторович</i> МАЪМУРИЙ ВА ОММАВИЙ ҲУҚУҚИЙ МУНОСАБАТЛАРДАН КЕЛИБ ЧИҚАДИГАН НИЗОЛАРНИ СУДДА ҲАЛ ЭТИШДА КЕЛИШУВ ТАРТИБ-ТАОМИЛЛАРИНИ ҚЎЛЛАШГА ТАЪСИР ҚИЛУВЧИ АЙРИМ МАСАЛАЛАР .....	232-240
<i>Эшонхонов Камолхон Маматхонович</i> БАНД СОЛИНГАН МУЛКНИ ҚОНУНГА ХИЛОФ РАВИШДА ТАСАРРУФ ЭТИШ ЖИНОЯТИНИ КВАЛИФИКАЦИЯ ҚИЛИШДАГИ АЙРИМ МАСАЛАЛАР.....	241-246
<i>Бўриев Одил Қобилович</i> КОРРУПЦИЯГА ҚАРШИ КУРАШ – ИНСОН ҚАДРИНИ ЮКСАЛТИРИШ МЕЗОНИДИР .....	247-253
<b>13.00.00 - ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ</b>	
<i>Umarzoda Shohruh Azamat o'g'li</i> "ALGORITMIK TILLAR VA DASTURLASH ASOSLARI" FANI MAZMUNI VA O'QITISHNING MAVJUD HOLATI .....	254-259
<i>Эргашева Гули Исмоил кизи, Инамова Гуллола</i> ЗНАЧИМОСТЬ ФОРМИРОВАНИЯ ФОНЕТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ В ПРОЦЕССЕ КОММУНИКАЦИИ.....	260-265

<i>Bobomurotov Sirojiddin Mengziyo o'g'li</i> BOSHLANG'ICH SINFLARDA TABIIY FANLARNI VARIANTIV TUSHUNCHALAR ASOSIDA O'QITISHDA SHARQ MUTAFAKKIRLARINING O'RNI .....	266-271
<i>Xudoyberdiyev G'iyosiddin Baxtiyor o'g'li</i> BOSHLANG'ICH SINFLARDA SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK JIHATLARI .....	272-277
<i>Ботиров Азизбек</i> РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В НЕГОСУДАРСТВЕННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ: АНАЛИЗ И ПЕРСПЕКТИВЫ .....	278-283
<i>Эшбеков Сардор Журакулович</i> ЁШЛАРНИ ҲАРБИЙ ВАТАНПАРВАРЛИК РУҲИДА ТАРБИЯЛАШ ТИЗИМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШИНИГ МУҲИМ ОМИЛИ .....	284-288
<i>Abdullaeva Feruza Suyunovna</i> KASBIY TERMINOLOGIYANI O'RGATISHDA INTERAKTIV TEXNOLOGIYALARNING O'RNI .....	289-293
<i>Ortiqov Oybek Rustamovich</i> OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLARNING TASHKIL ETILISHI.....	294-298
<i>Erhanova Nasiba Absayitovna</i> MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARINING "TIL VA NUTQ" MARKAZIDA INNOVATSION FAOLIYAT OLIB BORISH .....	299-303
<i>Robiya Mannopova</i> INNOVATIVE COMPETENCY AS A CORE COMPETENCE OF FOREIGN LANGUAGE TEACHERS.....	304-308
<i>Qodirov Olim Odilovich</i> REFLEKSIV YONDASHUV, UNING MOHIYATI VA KONSEPTUAL ASOSLARI.....	309-314
<i>Xaydarova Mahliyo Xabibullayevna</i> TARBIYA FANINI O'QITISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.....	315-322
<i>Xasanova Gulsanam Xusanovna</i> IJTIMOIY-MADANIY FAOLIYATDA MAGISTRATURA TALABALARINING TASHKILIY- BOSHQARUV KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH USULLARI .....	323-328



*10.00.00-Филология фанлар*

**Odinayev Bekqul Imamqulovich**  
Sharof Rashidov nomidagi  
Samarqand davlat universiteti doktoranti  
[odinayevbekqul@samdu.uz](mailto:odinayevbekqul@samdu.uz)

### **LISONIY SHAXS: TA'RIF, TAHLIL, TALQIN**

**Annotatsiya.** Zamonaviy tilshunoslik uchun inson omili va xususan, "lisoniy shaxs" masalasi ilmiy tahlil obyekti sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada ham aynan shu muammo yoritilgan. Maqolada badiiy matndagi shaxsning ruhiy-emotsional holatini ifodalash, personajning xarakteri va individual qirralarini tasvirlashda lisoniy birliklarning semantik, stilistik va lingvopragmatik imkoniyati to'g'risida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** lingvopragmatika, antroposentrik paradigma, lisoniy shaxs, semantik rol, agens, patsiens, eksperiens.

**Oдинаев Беккул Имамкулович**  
Doctoral student Samarkand State University  
named after Sharof Rashidov

### **LINGUISTIC PERSONALITY: DEFINITION, ANALYSIS, INTERPRETATION**

**Abstract.** For modern linguistics, the human factor and, in particular, the issue of "linguistic personality" is of great importance as an object of scientific analysis. This article also covers this problem. The article discusses the semantic, stylistic and linguopragmatic possibility of linguistic units in expressing the mental-emotional state of a person in the artistic text, describing the character and individual aspects of the character.

**Key words:** linguopragmatics, anthropocentric paradigm, linguistic personality, semantic role, agens, patsiens, experiencer.

**Одинаев Беккул Имамкулович**  
Докторант Самаркандский государственный  
университет имени Шарофа Рашидова

### **ЯЗЫКОВАЯ ЛИЧНОСТЬ: ОПРЕДЕЛЕНИЕ, АНАЛИЗ, ИНТЕРПРЕТАЦИЯ**

**Аннотация.** Для современной лингвистики большое значение как объект научного анализа имеет человеческий фактор и, в частности, проблема «языковой личности». В этой статье также рассматривается эта проблема. В статье рассматриваются семантические, стилистические и лингвопрагматические возможности языковых единиц в выражении психоэмоционального состояния человека в художественном тексте, описании характера и отдельных сторон персонажа.

**Ключевые слова:** лингвопрагматика, антропоцентрическая парадигма, языковая личность, семантическая роль, агенс, пациенс, экспериенсер.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SP1342V3I10Y2023N29>

**Kirish.** Dunyo tilshunosligida tilning nutq, jamiyat, madaniyat, milliy tafakkur, hatto sun'iy intellekt bilan uzviy aloqalarini tadqiq etuvchi yangi yo'nalishlarning shakllanishi fan oldiga dolzarb vazifalarni qo'ymoqda. Til va nutq hodisalarining ongli va izchil farqlanishi asosida lisoniy imkoniyatlarning badiiy voqelanishini o'rganuvchi fan sohasi sifatida nazariy va amaliy pragmatikani farqlash ehtiyoji kuchaymoqda. Bu esa lingvopragmatik qonuniyatlarni ishlab chiqish, ma'lum bir ijodkor asarlarida umumiy lingvopragmatik asoslarning badiiy matnda individual voqelanish holatlari va omillarini ijodkor – til – badiiyat – pragmatik natija mushtarakligi tamoyili asosida tadqiq etish zaruratini keltirib chiqaradi. Tilni uning sohibi bo'lgan inson omili bilan birgalikda o'rganishning boshlanishi, antroposentrik tilshunoslikning yuzaga kelishi va jadal sur'atlarda rivojlanishi, avvalo, til tadqiqida o'z yechimiga ega bo'lmagan muammolarga javob topish imkonini bergan bo'lsa, ikkinchidan, tilni chuqur o'rganishga yo'l ochdi.

Antroposentrik paradigmada til inson bilan bir butunlikda o'rganilar ekan, o'z-o'zidan harakatdagi til – nutq jarayonini tadqiq etishga asosiy e'tibor qaratildi, nutqiy muloqot muammosi lingvopragmatikaning bosh masalalaridan biriga aylandi. Hozirda fan uchun qiziqish endi faqat umumiy shaxs emas, balki shaxsning o'ziga xosligi, ya'ni ma'lum bir shaxsning ong va tilning tashuvchisi sifatidagi ichki va tashqi dunyosi, moddiy dunyoga, jamiyatga va boshqa odamlarga nisbatan aniq munosabatlarini kompleks o'rganish muhim masalaga aylandi. Biz ushbu maqolada, bugungi kunda zamonaviy tilshunoslikning markaziy fenomen hodisasi sifatida kategorial maqomni egallab, ko'plab tadqiqotlarda antropolingvistika rivojlanishining dastlabki bosqichiga xizmat qiluvchi obyekt sifatida baholanayotgan "lisoniy shaxs" tushunchasi va lingvopragmatik imkoniyat xususida so'z yuritimiz hamda ilmiy qarashlarimizni isbotlashda Erkin A'zam asarlaridan olingan matnlarga tayanamiz.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Lisoniy shaxs terminining tilshunoslikka kirib kelishi va keng qo'llanilishiga hissa qo'shgan olimlar: I.Veysgerber, V.Vinogradov, Y.Karaulov ekanligi; taniqli tilshunoslar V.I.Karasik, G.I.Bogin, N.Uali, F.G.Fatkullina, A.K.Suleymanova, L.M.Salimova, V.V.Vorobiev, D.K.Saiakhova, o'zbek tilshunos olimlari D.Ashurova, M.Galiyeva, A.Mamatovlarning lisoniy shaxsga bergan ta'riflari; Ch.Fillmoro, S.V.Ryadinskaya, V.A.Migachevlarning semantik rol haqidagi qarashlari; atoqli tilshunos olim N.Mahmudovning Erkin A'zamning til birliklaridan foydalanish mahorati haqidagi beqiyos fikrlari; matnning antroposentrik tadqiqi haqida D.Xudoyberganovanning qarashlari keltirilgan.

Ilmiy-nazariy fikrlarni dalillashda Erkin A'zam asarlaridan olingan matnlar hamda lingvopragmatik tahlil metodidan foydalanildi.

**Muhokama va natijalar:** Tilshunoslikda lisoniy shaxs terminining qo'llanila boshlashi nemis olimi I.Veysgerber, rus tilshunosligida V.Vinogradov nomi bilan bog'liq. Uni keng ilmiy muomalaga esa Y.Karaulov olib kirdi. Lisoniy shaxsga psixolingvistika, pragmalingvistika, lingvokulturologiya, kognitologiya, lingvopragmatika, etnosotsiopragmatika, etnolingvistika, sotsiolingvistika, matn tilshunosligi va boshqa antroposentrik yo'nalishlar nuqtai nazaridan qaraladi. Lisoniy shaxsni fanning turli sohalari chorrahasida o'rganish ushbu tushunchaning ta'rifi, tavsifi, tuzilishi va mezonlariga yondashuvlarning murakkabligi, noaniqligi va nomutanosibligini keltirib chiqaradi. Adabiyotlarda "til shaxsi", "gapiruvchi inson", "lisoniy shaxs", "kommunikativ shaxs", "kognitiv shaxs", "nutq shaxsi", "diskursiv shaxs" kabi terminlarning qo'llanilishiga duch kelamiz. Ayrim olimlar tomonidan bu terminlarning izohi

berilib, ba'zilarining qamrov darajasiga ko'ra bir-biridan farqli jihatlari aytib o'tilgan bo'lsa, bir guruh olimlar "lisoniy shaxs" va "til shaxsi" terminlarini sinonim sifatida aralash holda qo'llaganliklarining guvohi bo'lamiz.

Antroposentrik tilshunoslik lisoniy shaxsni o'rganishga til shaxsining leksik-stilistik tizimi, dunyoning hissiy manzarasi doirasida yondashadi. Lisoniy shaxs tilining individual xususiyatlari orqali nafaqat milliy til, balki shaxsning ichki dunyosi ham tobora ochilib boradi. Shu jihatdan, lisoniy shaxs tushunchasi shaxsning ichki dunyosi, uning tili namunasidir. Tilni insondan ayro holda o'rganish mumkin emas, chunki o'sha tilda gapiradigan odamsiz til shunchaki belgilar tizimidir. Y.N.Karaulov "insonning til shaxsi sifatida shakllanishi faqat til orqali amalga oshiriladi" deb ta'kidlaydi hamda lisoniy shaxsga "tilda (matnda) til orqali ifodalangan shaxs bo'lib, u o'zining asosiy belgilarida til vositalari asosida qayta tiklangan shaxsdir" deb ta'rif beradi [8; 38 c.].

V.I.Karasikning fikriga ko'ra, til shaxsi doimo o'ziga xos ong va milliy stereotiplarga ega bo'lgan muayyan lingvomadaniy jamiyatning bir qismi. Bu til shaxsi sotsializatsiya jarayonida qo'llaniladi [7; 29 c.]. G.I.Bogin lisoniy shaxsga o'z faoliyatida til tizimidan keng foydalanish qobiliyatiga ega bo'lgan idiomatik nutqqa ega shaxs sifatida qarashni taklif qiladi. Uning fikricha, til shaxsi – bu og'zaki harakatlarni amalga oshirishga tayyorligi nuqtayi nazaridan qaraladigan shaxs [4; 3 c.]. Lisoniy shaxs til haqida bilishi bilan emas, balki til vositasida nima qila olishi bilan tavsiflanadi.

O'zbek tilshunosligida D.Ashurova, M.Galiyevlar lisoniy shaxsga "ko'p qirrali, ko'p komponentli, tizimli ravishda tashkil etilgan lingvistik kompetensiyalar majmui, shaxsning ma'naviy dunyosining uning ijtimoiy, etnik, psixologik estetik xususiyatlarining yaxlitligidagi ma'lum lisoniy o'zaro bog'liqligi" [1; 95 p.] deb ta'rif bergan bo'lsa, A.Mamatov "lisoniy shaxs – bu nutq shaxslarining ko'p qatlamli va ko'p tarkibli paradigmasidir. Bunda nutq shaxsi – real munosabatdagi, faoliyatdagi lisoniy shaxsdir. Aynan nutq shaxsi bosqichida ham lisoniy shaxsining milliy-madaniy o'ziga xos xususiyati ham munosabatning milliy-madaniy o'ziga xos xususiyati namoyon bo'ladi" deb ta'kidlaydi [10; 54-b.]. Shuning uchun ham "til shaxsi o'zining kognitiv qobiliyatlari, kommunikativ ehtiyojlari, nutq faoliyati bilan shunday murakkab, chuqur tahlil qilinishi kerak bo'lgan ko'p qirrali hodisa. Shaxsni ona tilida so'zlashuvchi sifatida o'rganish zamonaviy tilshunoslikning antroposentrik paradigmasiga mos keladi" [5; 1736 p.].

Badiiy matn til imkoniyatlaridan unumli foydalana oladigan yozuvchining ijod mahsuli sifatida turfa xil individual lisoniy shaxs tiplarini yuzaga chiqaradigan manbadir. Har qanday adibning ijodi nafaqat millat tarixi, milliy o'ziga xosligini ko'rsatib beruvchi vosita, balki yozuvchi sifatidagi shaxsi hamdir. Yozuvchining til vositalaridan foydalanish mahorati turli his-tuyg'ularga ega qahramonlarining lisoniy shaxsini shakllantira olishida, ularning o'ziga xosligini ko'rsatib bera olishida ko'rinadi. Xususan, badiiy asarda qo'llanuvchi individual neologizmlar, iste'mol doirasi chegaralangan qatlamga oid dialektizm, varvarizm, vulgarizmlar, noodatiy birikmalar, o'ziga xos sintaktik qurilish xarakter yaratishda muhim ahamiyatga ega. Badiiy matndagi bunday birliklar nutq egasining (yozuvchi, muallif-hikoyachi, personajlar) turmush tarzi, ijtimoiy mavqeyi, mashg'uloti, qiziqishlari, millati, jinsi, yoshi, milliy-madaniy hamda diniy qarashlari, voqelikka munosabati kabilarga ishora qiladi.

Shu o'rinda Erkin A'zamning "Guli-guli" qissasidan olingan ayrim matnlar tahliliga e'tibor qaratamiz. Badiiy asarning estetik jozibasini ko'rsatuvchi asosiy omil bu – matnning

tasviriyliги, yorqinliги va ekspressivliги. Shu jihatdan, yozuvchining o'ziga xos uslubi, talqini kitobxonlar e'tiborini tortmasdan qolmaydi:

*Tabiiyki, shira-sharbat qayda bo'lsa, markaz ham, rahbariyat ham o'sha yerda bo'ladi. Markaz, tabiiyki, cho'l bag'rida qad rostlagan zamonaviy kommunistik shaharcha – Dashtobod deb belgilangan edi. Ko'ch-ko'ch boshlandi. Jiydalidagi mayda-katta ismiki tashkilot yo idora bor – barchasi ko'chini ko'tardi. Ingichka-yu yo'g'on rahbarlar amal kursisining izidan qoralab ketgan, ishsiz qolgan boshqalar ham o'sha yoqqa, yoki bo'lmasa, mo'mayroq pul chiqadigan bo'lak paxtakor manzillarga bosh olib jo'nagan edi [3; 199 6.].*

Lisoniy shaxs – hikoyachi nutqidan berilgan “shira-sharbat qayda bo'lsa, markaz ham, rahbariyat ham o'sha yerda bo'ladi” jumlasidagi “shira-sharbat” so'zida yaxshi ish sharoiti va farovon turmush tarzi, kishi huzur qiladigan, orom oladigan, unga xush yoqadigan imkoniyatlar muhayyo bo'lgan joy presuppozitsiyasi mavjud. “Ko'chini ko'tarmoq” iborasi esa “ko'chmoq” ma'nosini ifodalaydi. “Ingichka-yu yo'g'on rahbarlar” kichik va katta tashkilotlarning yuqori va quyi lavozimlardagi rahbarlarini bildirishdan tashqari kishi ongida rahbar deganda ko'z oldiga salobatli insonlar gavdalanishini ham anglatadi. Shuningdek, obrazlilikni ta'minlab, jumla takrori bilan bog'liq bo'lgan uslubiy g'alizlikning oldini oladi.

Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, til shaxsining shakllanishi quyidagi uchta ekstralingvistik omil ta'siriga bog'liq: ijtimoiy, milliy-madaniy, psixologik omillar. Shaxslar yashaydigan har qanday vaziyat, birinchi navbatda, jamiyat tomonidan tartibga solinadigan normalar va qonunlarga bo'ysunadigan ijtimoiy holatdir. Bir tomondan, til shaxsi bu holatlarga rioya qilishi kerak. Boshqa tomondan, ular o'sha jamiyatning a'zolari bo'lganligi sababli, ular sodir bo'layotgan voqealarga shaxsiy pozitsiyasini ifodalash uchun umumiy me'yorlarni buzishga qodir [12; 23-b.].

*Buni bizga zoologiya muallimimiz Nurillayev aytgan edi... Ko'p o'tmay, sovet pedagogiga nomunosib xulq-atvori uchun (durkunroq o'quvchi qizlarga muomalasi boshqacha edi) Nurillayev maktabimizdan chetlashtirildi. Aytishlariga qaraganda, u tog'dagi ilm o'choqlaridan biriga o'tkazilgan emish. Hayvonot olamiga yaqinroq-da... [3; 205 6.].*

Yozuvchi tomonidan “hayvonot olamiga yaqinroq” jumlasini orqali juda kuchli presuppozitsiya o'ta mohirlik bilan singdirilgan. Bir qarashda kitobxon Nurillayev zoologiya fani o'qituvchisi bo'lganligi uchun uning “tog'dagi ilm o'choqlaridan biriga” o'tkazilishini mutaxassislik fani hamda maktabning hududiy joylashuvi jihatidan hayvonot olamiga yaqin deb tushunadi. Aslida esa “hayvonot olamiga yaqinroq-da” deyilganda Nurillayevning o'zi nazarda tutiladi. Buni biz uning pedagogga nomunosib xulq-atvori uchun ya'ni durkunroq o'quvchi qizlarga muomalasi boshqachaligidan maktabdan haydalganidan anglashimiz mumkin. Nurillayev o'qituvchi bo'laturib, pedagogga xos bo'lmagan xatti harakatni amalga oshirganligi sababli hayvonga tenglashtiriladi. U o'zining hayvoniy xislatlari bilan hayvonot olamiga yaqinligi uqtiriladi.

Shuni ham qayd etib o'tish kerakki, til shaxsi ijtimoiy hodisa bo'lsa-da, uning individual jihatlari ham bor. Har bir nutqda individuallik izi bo'lishi kerak. Muallifning lingvistik o'ziga xosligi u yoki bu tarzda ifodalanishi shart va shunga mos ravishda tuzilgan matnda osongina kuzatilishi mumkin. Muayyan shaxsning tili ko'proq umumiy tildan va kamroq darajada individual lingvistik xususiyatlardan iborat. Biroq, bu xususiyatlar ba'zan so'zlovchi nutqida hal qiluvchi rol o'ynashi va muloqot ishtirokchilariga ta'sir qilishi mumkin.

*Samandarning aytgani to'g'ri chiqdi: Parda Qurbon uzumlarini chumchuq cho'qib bitirgan ishkomb tagidagi supada, po'stakni chappa tashlab, qansharida ko'zoynak, xirmondek bo'lib kitob mutolaa qilib yotardi.*

– E-ha, Berdiboy, – deya og'ir qo'zg'alib, istar-istamas qaddini rostladi u.  
– Keling. Bolalar yuribdimi? Momangiz damlimi?

– O'tiribdi. Eski kasali – kechasi oyog'i og'riydi.

– **Ihm, ihm. Cho'rt**, borish kerak ekan-da bir.

Koshki bu odam bilan tuzuk so'rashib bo'lsa, so'zlashib bo'lsa! Yuz og'iz gapirsangiz ham javob shu – **Ihm, ihm. Cho'rt, cho'rt**.

Nimadan so'z boshlashni bilmay Berdiboy beixtiyor tomorqaga nazar soldi. Qarovsiz, hammayoq qarovsiz! Olmalarning tagi yumshatilmagan, shoxlari sinib, mevalari yerga to'kilib yotibdi – molga yem. Devor tagida o'sgan ikki tup anor – beboshbog' gangib yurgan ikki qo'tir echkiga tayyor ermak. Hovliga tutash keng sayhon suvsizlikdan tors-tors yorilib, ajriqzorga aylangan...

– Anovi yerni chopib, biron nima ekish kerak edi, – dedi Berdiboy azbaroyi gapni yurishtirib olish maqsadida.

– **Ihm**, chopish kerak, ekish kerak, – deya ma'qullab qo'ydi ota.

Kim chopadi, kim ekadi? **Erkashotirlari har yoqqa to'zib ketgan**, boyagidek ko'cha changitib, **noma'qulning nonini ko'zlab yuribdi**. Bir umr **cho't qoqqan odamning** o'zi bo'lsa, endi mana, muk tushganicha eski kitoblarni **hijjalab yotibdi** — **oxiratning tashvishu hisob-kitobi bilan mashg'ul, bu dunyoni suv bossa bosaversin! Erta bir kun boshiga salla o'rab, soqolini ko'kragiga tushirib namozxonlar qatoriga kirsa ham ajab emas**. Anov boloxonada ulfati Barot Qosim bilan bir yonboshlaganda yarim qo'yning go'shtini-yu **necha-nechalab shishaning tusini o'chirgan** davrlari esida yo'q... [2; 102–103-b.].

“Piyoda” hikoyasidan olingan ushbu matnda Parda Qurbon va uning o'g'li Berdiboy o'rtasidagi muloqot aks etgan. Parda Qurbonning “xirmondek bo'lib kitob mutolaa qilib yotishi” uning basavlat ekanligidan dalolat beradi. Uning nutqidagi o'ziga xoslik “yuz og'iz gapirsangiz ham javob shu – “Ihm, ihm. Cho'rt, cho'rt” ekanligida ko'rinadi. Boshqalar bilan muloqotda “ihm”, “cho'rt” og'zidan tushmasligidan “koshki bu odam bilan tuzuk so'rashib bo'lsa, so'zlashib bo'lsa”. Shotir asl ma'noda jilovdor askarni ifodalasa, kesatiq ma'noda xizmatkor, yugurdakni anglatadi. “Noma'qulning nonini ko'zlab yurmoq” uyga nafi tegmasdan bekorga ko'cha-ko'yda tentirab yurmoq, o'zgalar xizmatini beminnat qilmoqlikni bildiradi. Parda Qurbonning “bir umr cho't qoqqan odam”ligidan uning hisob-kitob ishlariga oid sohalarda faoliyat yuritganligi ayon bo'ladi. Bir vaqtlar ulfati Barot Qosim bilan ko'p ichimlik iste'mol qilganligi “necha-nechalab shishaning tusini o'chirgan”ligi orqali kitobxonga yetkazilgan.

Yuqoridagi matnda guvohi bo'lganimizdek, muloqot ishtirokchilari muloqotda turli pozitsiyalarni egallaydi va ba'zan aktiv ba'zan passiv holatda gavdalanadi, nutq vaziyatiga muvofiq muayyan rollarga ega bo'ladi. Ch.Fillmor tomonidan taklif etilgan semantik rol tushunchasi tilning sintaktik va semantik tarkibiy qismlarini shakllantirishga harakat qilgan lingvistik nazariyalar doirasida ishlab chiqilgan. Bir xil kodlangan ishtirokchilar uchun umumiy xususiyatlar majmui **semantik rol** deb ataladi. Ismning holi bu ot bilan belgilangan ishtirokchining semantik rolini ifodalaydi.

Turli tadqiqotlarda semantik rollar turlicha miqdorda keltirilib, turlicha nomlansada, aksariyat hollarda quyidagicha tasniflanishining guvohi bo'lamiz:

1. Agens (lotincha agens – “harakat qiluvchi”) – vaziyat ustidan nazoratni amalga oshiruvchi ishtirokchi; tashabbusi bilan harakat sodir bo‘lgan kishi.

2. Patsiens (lotincha patiens – “azob”) ta’sir yo‘naltirilgan va jismoniy holati, shu jumladan kosmosdagi holati, bu vaziyat natijasida o‘zgargan ishtirokchi.

3. Eksperienser (lotincha experiens – “boshdan kechirish”) – ichki holatiga vaziyat ta’sir qiladigan ishtirokchi.

4. Stimul – boshqa ishtirokchining ichki holatiga ta’sir etuvchi ta’sir manbai bo‘lgan ishtirokchi.

5. Instrument – ishtirokchilardan biri tomonidan boshqa ishtirokchining jismoniy holatini o‘zgartirish uchun foydalanilgan ishtirokchi.

6. Retsipient (lotincha recipiens – “qabul qiluvchi”) – vaziyatni anglash jarayonida biror narsaga ega bo‘lgan ishtirokchi [11; 176–177 c.].

Quyidagi matnga e’tibor qartamiz:

– *Mana men, akajon!*

*Berdiboy yalt etib ayvon tarafga qaradi. Deraza tagida yotib hamma gapni eshitgan chog‘i, panjaraga suyangancha, hech narsadan tap tortmaydigan bir vajohat bilan sho‘x-shaddod Gulsanam turardi. Boshyalang! Ana, ko‘rdinglar, musulmonlar, aytmabmidim!*

– *Yo‘l bo‘lsin, singlim? – dedi Berdiboy nosini tupurib.*

– *Toshkentga!*

– ***Toshkentda pishirib qo‘ygan ekanmi?!***

– ***Sizga sallalik, Oyro‘zi chechamga paranjilik opkelmoqchiman!***

– *Xo‘sh, qanday o‘qishga ekan? – dedi Berdiboy uning kesatig‘ini eshitmagandek, atay merovsirab. – O‘qib kim bo‘lasiz endi?*

– *Xudojnik-modelyer! Bichiqchi rassom.*

*Bu so‘zlarni Gulsanam shunday ohanjamali talaffuzda, **shunday burab aytdiki**, tilginasini sug‘urib olgisi keldi Berdiboy.*

– *Devor ag‘nasa, ichkari ag‘nasin, – dedi maqol-matalsiz gapirmaydigan ona tandir boshidan turib orachi-murosachilikka tusharkan. – Mayli, akasi, o‘zimizdan ham chevar chiqsinda. Bir ko‘ylak tiktirish – falon pul! Kelib xotiningga, qizaloqlaringga chiroyli-chiroyli narsalar tikib beradi.*

– *U yoqda kimnikida turasan? – deya so‘rog‘ida davom etdi Berdiboy.*

– *Kimnikida bo‘lardi, akam-chi, Muzaffar akamnikida!*

– ***Ha, Xudo uribdi!***

– *Bu nima deganing, ulim! Bir qorindan chiqqan ukang-a! – dedi onasi supaga yaqinlashib.*

– *Uyat bo‘ladi. O‘zingnikini yomonlasang, yotning mehri qochadi, deydilar. – U qo‘lidagi ko‘pchib-singib pishgan nondan bir chimdim uzib og‘ziga soldi-da, chala yozig‘liq dasturxon ustiga qo‘ydi:*

– *Ol, nondan ol.*

– *So‘ng Gulsanamga o‘girildi: – Sen, qiz, bunday aytishib o‘tirguncha, kirib taraddudingni ko‘r! Akangdi odatini bilasan: Tiniq kampirdi o‘gitini yeb, o‘gitini ichib katta bo‘lgan bu sahroyi ulim!*

*Yo‘q, Gulsanam zahrini so‘nggi tomchisigacha to‘kmasa, naq o‘lib qolardi!*

– *Siz, aytaymi... – dedi u Berdiboyga chaqchayib qarab, – **o‘tgan asrdan qolgan odamsiz, akajon!***

– **Bo’pti! Bu zamonda akalik qolmabdi, ukalik qolmabdi. Buni surishtirmoqchi bo’lgan odam o’tgan asrga qaytishi kerak ekan, bo’pti, qaytamiz! – dedi Berdiboy g’aribnolalik bilan. – Otang rozi, enang rozi, biz nima der edik, singlim? Biz bu uydan etak silkiymiz-u chiqamiz-ketamiz-da!**

– **O’tir, o’tir! Qo’zilaring qo’lingga qaraydi, ikkita issiq patir o’rab beray, – dedi onasi kiftidan bosib. So’ng yarim hazil, yarim chin ohangda ginaxonlik qildi: – Doim kelib uyimga bir g’avg’o solib ketasan-a, ulim? Hah, sening kindikkinangdi kesgan kampirdi kapaginasikuysin!**

“Kindikkinangdi kesgan kampir...” Momamni aytyapti. Yoqtirmaydi, o’lgudek yomon ko’radi uni. Kelinligida ko’p sitam o’tkazgan emish-da. Shu yalmog’iz kampirdan qutulay, ham ota-onamga yaqin bo’lay, deya qistayverib, axiyri, shahardan uy-joy qildirgan otamga. Biz bo’lsak qolaverganmiz u yoqda – yolg’iz kampirning qo’lida, “yalmog’iz” kampirning qo’lida... **sahroyi bo’lib, o’gay bo’lib! Endi bular – shaharlik! Endi bularning oti – Muzaffar-u Samandar, Gulsanam-u Gulandom! Bizniki bo’lsa... Berdi, Berdiboy! Kim berdi, nima berdi, nega?.. Endi apam bu yerni “uyim, mening uyim” deb gapiradi.**

Parda Qurbon bo’lsa miq etmaydi, “ha, uying, sening uying” degandek, quloq qoqmay o’tiraveradi. Chunki ro’zg’orning tizgini, jami bordi-keldisi apamning qo’lida! **Bu ishlarni ko’ring, e, dod-ey!**

– **Yo’q! – dedi Berdiboy shitob bilan o’rnidan turib. – Men ketdim! Boshingizga yostiq qiling patiringizni! Uyimda non yetarli, shukr! Bu yerda bizning bir chaqalik qadrimiz yo’q ekan, bildik! Endi yelkamning chuquri ko’rsin uyingizni!** [2; 104–105-b.].

Ushbu matnda Gulsanam **agens** sifatida gavdalanadi. Berdiboy esa **patsiens**. Ular o’rtasidagi muloqotdan ayon bo’ladiki, Berdiboy singlisining shaharga borib o’qishiga to’sqinlik qiladi, uni bu yo’ldan qaytarmoqchi bo’ladi, ammo Gulsanam akasini eskicha fikrlaydigan, “o’tgan asrdan qolgan odam” deb biladi. O’z jigarlari bo’lgan singlisi va ukasi uning gapiga kirmaganlaridan Berdiboyning jahli chiqadi, g’aribnolalik bilan “bu zamonda akalik qolmabdi, ukalik qolmabdi. Buni surishtirmoqchi bo’lgan odam o’tgan asrga qaytishi kerak ekan, bo’pti, qaytamiz” deya zorlanadi. Berdiboyning shahardagi ukasi Muzaffar bilan ham orasi yaxshi emasligini Gulsanam shaharda Muzaffar akasinikida turmoqchi ekanligini aytganda Berdiboyning sovuqqina qilib “ha, Xudo uribdi” deb qo’yanidan bilib olamiz. Aka-singilning gap talashayotganini ko’rib “orachi-murosachilikka tushgan” onasi **stimul** rolini bajaradi. Onasining yarim hazil, yarim chin ohangda “doim kelib uyimga bir g’avg’o solib ketasan-a, ulim? Hah, sening kindikkinangdi kesgan kampirdi kapaginasikuysin!” deb ginaxonlik qilishi Berdiboyni hovuridan tushirish o’rniga baddar alangalatadi.

Berdiboyning “biz bo’lsak qolaverganmiz u yoqda – yolg’iz kampirning qo’lida, “yalmog’iz” kampirning qo’lida... sahroyi bo’lib, o’gay bo’lib! Endi bular – shaharlik! Endi bularning oti – Muzaffar-u Samandar, Gulsanam-u Gulandom! Bizniki bo’lsa... Berdi, Berdiboy! Kim berdi, nima berdi, nega?..” deyishidan uning bir vaqtning o’zida **eksperienser** rolini ham bajarayotganligi ayon bo’ladi. Berdiboyning singlisiga so’zi o’tmadi, onasidan koyish eshitdi, otasidan biror sas-sado chiqmadi, bu yerda bir chaqalik qadri yo’q ekanligi hafsalasini pir qildi, hammasiga qo’l siltab uyingizni yelkamning chuquri ko’rsin deb chiqib ketdi.

Tahlildan ko’rinadiki, “so’zlar o’z ma’nosi bilan inson psixikasiga ta’sir etish xususiyatiga ega. Inson o’z xotirasida so’zlarning ma’nolari bilan birga ularning obyektiv olamda o’z sezgi a’zolari orqali his etgan xususiyatlari haqidagi ma’lumotlarni ham saqlaydi. Shu sababli

muayyan soʻz uni eshituvchi odam xotirasida muayyan assosiatsiyalarni paydo qiladi. Agar matnda bir assotsiativ maydonga kiruvchi soʻzlar qoʻllangan boʻlsa, ular oʻquvchi psixikasiga yanada kuchliroq taʼsir etadi” [13; 68 б.].

**Xulosa.** Til shunchaki muloqot vositasi emas, u xalqning tarixiy va madaniy boyligining namoyonidir. Lisoniy shaxs esa psixologik, axloqiy, ijtimoiy komponentlar yigʻindisidir. Til olam va odam oʻrtasidagi koʻprik. Bejizga V.Gumboldt tilni “tashqi hodisalar olami bilan insonning ichki dunyosi oʻrtasida yotgan dunyo” deb taʼriflamagan [6; 304 с.]. Muloqotning (matnning) qanchalik taʼsirchan, samarali boʻlishi, soʻzga jon ato etilishi tildan foydalanuvchi shaxsning (yozuvchining) mahoratiga bogʻliq. Buyuk yozuvchi Erkin Aʼzam ana shunday soʻz zargarlaridandir. Ulugʻ tilshunos olim N.Mahmudov aytib oʻtganlaridek, “alohida taʼkid va tahsin bilan aytmoq joizki, Erkin Aʼzam qalamiga mansub har qanday matnda soʻz butun borligʻi, mazmuniy-hissiy qirralari, shakl-u shamoyili va hatto sas-sadosi bilan namoyon boʻladi, tirik va teran mantiq oʻzani aro harakatda boʻladi, uning qoʻllanishi tasvir tiniqligi va rostligi uchun ayni muddao boʻladi, ortiqchalik yoki bejolik degan noqisliklar bu soʻzga batamom begona boʻladi... Erkin Aʼzam ijodi lisoniy badiiyat bobidagi koʻplab tadqiqotlar uchun hali ochilmagan qoʻriqdir” [9].

#### Adabiyotlar//Литература/References:

1. Ashurova D.U., Galiyeva M.R. Stylistics of literary text. – Tashkent: Alisher Navoiy nomidagi Oʻzbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2013. – 204 б.
2. Aʼzam E. Ertak bilan xayrlashuv: Qissa va hikoyalar. – Toshkent: “Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2007. – 200 б.
3. Аъзам Э. Шовқин: роман, қисса, ҳикоялар. – Тошкент: “Oʻzbekiston”, 2011. – 288 б.
4. Богин Г.И. Типология понимания текста: учебное пособие. – Калинин: КГУ, 1986. – 86 с.
5. Fatkullina F.G., Suleymanova A.K., Salimova L.M., Vorobiev V.V., Saiakhova D.K. Linguistic Personality As A Key Concept Of Anthropolinguistics // SCTMG 2020 International Scientific Conference “Social and Cultural Transformations in the Context of Modern Globalism” Dedicated to the 80th Anniversary of Turkayev Hassan Vakhitovich, vol 92. (2020). European Proceedings of Social and Behavioural Sciences (pp. 1731-1737).
6. <https://doi.org/10.15405/epsbs.2020.10.05.228>.
7. Гумбольдт В. Избранные труды по языкознанию / – Москва: Прогресс, 1984. – 397 с.
8. Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс / Науч. – исслед. лаб. «Аксиол. лингвистика». – Москва: ГНОЗИС, 2004. – 389 с.
9. Караулов Ю.Н. Русский язык и языковая личность / – 4-е изд., стер. – Москва, 2004. – 261 с.
10. Маҳмудов Н. Вергул зўрми, нуқтами? – Эркин Аъзамнинг «Ёзувчи» ҳикояси лингвопоэтикасига чизгилар // “Oʻzbekiston adabiyoti va sanʼati” газетаси, 2023 йил 23 июнь 24-сон. <http://oyina.uz/kiril/article/1738>.
11. Mamatov A.E. Zamonaviy lingvistika: oʻquv qoʻllanma. – Toshkent: “Tafakkur avlodi”, 2020. – 168 б.
12. Рядинская С.В., Мигачев В.А. Падежная грамматика Ч. Филлмора и современное понимание ролевой семантики глагола // Иностранные языки в профессиональном образовании: лингвометод. контекст : материалы межвуз. науч.-практ. конф., Белгород, 17-18 мая 2006 г. / Белгор. ун-т потреб. кооперации. – Белгород, 2006. – С. 175-180.
13. <http://dspace.bsu.edu.ru/handle/123456789/7269>.



12. Uali N. Qazaq soz madenietinin teoriyalıq negizderi (Theoretical foundations of Kazakh speech culture): phil. PhD... avtoref. – Almaty, 2007. – 60 b.
14. Худойберганова Д. Матнинг антропоцентрик тадқиқи. – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси «Фан» нашриёти, 2013. – 136 б.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ 10 (3) – 2023*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатиغا олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).